



NEFT-GAZ SOHASI ISHCHILARINING MEHNAT SHAROITIGA IQLIMNING TA'SIRI

M.A.Mansurova

izlanuvchi

M.Norqobilova

student

Sh.A.Tosheva

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18103626>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 31-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

special clothing, oil, gas, jacket, strength, trousers, set, factor, requirements, well drilling, fabric with impregnation, antistatic fabric, harmful factors, design, working conditions.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekiston neft-gaz sanoati ishchilarining mehnat sharoitlariga iqlim omillarining ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda respublikaning keskin kontinental iqlimi sharoitida ochiq havoda ishlovchi neft va gaz sohasidagi mutaxassislarning mehnat faoliyati o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati ma'lumotlari asosida hududlarning iqlim ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ularning neft-gaz qazib chiqarish jarayoniga ta'siri baholangan.

Dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 iyul 2019 yildagi "Iqtisodiyotni va aholini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, moliyaviy sog'liqni saqlash va neft-gaz sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq yangi neft va gaz konlarini qidirish, burg'ulash, qazib chiqarish, uglevodorodlarni qayta ishlash, neft mahsulotlarini ishlabchiqarish, iste'molchilarni neft mahsulotlari bilan ta'minlash, investitsiyaviy loyihalarni jalb qilish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, qator vazifalarni soha bo'yicha belgilaydi[1]. Hozirgi kunda "O'zbekneftgaz" AJda 50 dan ortiq korxonalar, jumladan 13 ta qo'shma korxonalar (Rossiya, Eron, Xitoy, Amerika, Janubiy Koreya), uglevodorodlarni qazib olish bo'yicha 10 ta yirik korxonalar faoliyat yuritmoqda[2].

Neft-gaz sanoati murakkab ishlab chiqarish jarayoni va havfli sanoat bo'lib, bunda mehnatni muhofaza qilishni, ishchilarning sanoat havfsizligini boshqarishning samarali tizimi mavjud bo'lmasa, yuqori ko'rsatkichlarga erishib bo'lmaydi[3].

Neft-gaz sanoati komplekslarining mehnat faoliyati turlari 6 ta sohaga bo'linadi: Neft-gazqidiruv (razvedka) ekspeditsiyasi, neft-gaz quduqlarini burg'ulash, neft-gaz qazib chiqarish ishlari, neft-gazni tashish, neft-gazni qayta ishlash, neft va neft mahsulotlarini iste'molchiga yetkazish[4].

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston neft va gaz sanoati ishchilarining hozirgi holatda mehnat sharoitlarini hisobga olgan holda, ishchilar sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladigan havfli va zararli ishlab chiqarish omillari hisobga olgan holda, ijtimoiy tadqiqotlar orqali maxsus kiyimni loyihalash va takomillashtirish mazkur ishining asosiy yo'nalishini belgilab berdi[5].

Tadqiqot ishida neftchilarning mehnat sharoitidan kelib chiqib, quyidagi savollarni o'rganish lozim:


-neft sohasida band bolgan ishchi mutaxassisliklar va ularga ish sharoitida ta'sir etuvchi zararli omillar

-ochiq havoda ishlaydigan neftchilarga iqlim sharoitining ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot natijalari. O'zbekistonning iqlim sharoiti boshqa davlatlarning iqlimidan tubdan farq qiladi. Yil davomida neft va gazni qidiruvchilar (razvedka), burg'ulovchi va qazib oluvchilarning asosiy mehnat turlari ochiq havoda olib borilganligi sababli, ish joyidagi sharoitlar hududning iqlim sharoitiga (yog'ingarchilik, issiq va sovuq havo harorati, quyosh radiatsiyasi, chang, shamol, bo'ronlar, qum va qum ko'chkilari) qarab belgilanadi. O'zbekiston iqlim sharoitlarini tavsiflovchi eng muhim meteorologik omillar bo'lib quyoshning to'g'ridan-to'g'ri intensiv nurlanishi va yilning katta qismida quyosh nuri tushishining uzoq davom etishi hisoblanadi.


Neftchilarning ishi deyarli butun yil davomida amalga oshiriladi va meteorologik sharoitlar ishning barcha turlari va bosqichlarida juda xilma-xildir. Ma'lumki, Osiyoning issiq iqlimli mamlakatlari ichiga respublikamiz ham o'z o'rnini egallagan. O'zbekistonning iqlim sharoitini tavsiflovchi eng muhim meteorologik omillaridan biri bu yilning ko'p qismida quyoshning uzoq davom etishi, quyoshning to'g'ridan-to'g'ri nurlanishi hisoblanadi[6].

Havoning havo harorati bo'yicha (yillik)



1-1-rasm. O'zbekiston iqlimi bo'yicha havo harorati

O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazidan olingan ma'lumotlar asosida hududlar iqlimi(1-2-rasm) tahlil qilindi. Respublika tekisliklarida quyoshning yalpi radiatsiyasi yil davomida shimolda 4800 mdj/m^2 dan janubda 6500 mdj/m^2 gacha o'zgaradi. Uning o'zgarishi mavsumiy bo'lib, qish oylarida surunkali bulutli kunlar bo'lgani tufayli, quyosh nur sochishi imkoniyat darajasida deyarli ikki barobar kam bo'ladi. Yozda kunning uzunligi shimolda 16,5 soatni, janubda 15 soatni tashkil etadi[7].



2-rasm. O'zbekiston iqlimi bo'yicha havo namligi

Bunda quyosh nur sochib turgan vaqt kuniga 10 soatdan 13 soatgacha davom etadi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga respublikamiz bo'yicha eng issiq havo harorati to'g'ri keladi. O'zbekistonda quyosh nurlanishi yuqori umumiy ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. O'rtacha umumiy quyosh nurlanishi may oyida 17,7 kkal/sm²; iyunda 19,4; iyulda 19,4; avgustda 18,1 kkal/sm² tashkil qiladi. Buning sababi, quyosh nurlanishining davomiyligi o'rtacha 10 soat bo'lib, yozda (iyun) kuniga 14 soatga yetadi. Besh oy davomida havo harorati 35°C dan yuqori ko'tarilib, kunduzi 40-45°C ga yetadi. Bu davrda havo harorati ish joylarida 30-40% oralig'ida o'zgarib turadi.

O'tkazilgan tahlil ma'lum talablarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston neft-gaz qazib chiqarish sohasi ishchilari uchun respublikamizning iqlim sharoiti va mehnat sharoitlariga mos keladigan oqilona neft-gaz qazib chiqarish sohasi ishchilarining maxsus kiyimlarni ishlab chiqish imkonini beradi[8].

Xulosa. O'zbekiston neft-gaz qazib chiqarish sohasi ishchilari uchun maxsus kiyimlarni ishlab chiqishda hududiy iqlimni hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Iqlim sharoitlariga mos, issiqlik almashinuvi va himoya xususiyatlari yuqori bo'lgan maxsus kiyimlardan foydalanish ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, kasbiy xavflarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida neft-gaz sanoati ishchilari uchun iqlim sharoitlariga mos, funksional va himoya xususiyatlariga ega maxsus kiyimlarni loyihalash zarurligi asoslab berilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://www.stat.uz/> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi sayti
2. Сурженко Е.Я. Теоретические основы и методическое обеспечение эргономического проектирования специальной одежды: автореф. ..докт. техн. наук: 05.19.04. -Санкт-Петербург: СПГУТД, 2001. -49 с.
3. Oystein Nordrum Wiggen, Sirgi Heen, Hilde Faerevik, Randi Eidsmo Reinertsen. Effect of Cold Conditions on Manual Performance while Wearing Petroleum Industry Protective Clothing //Industrial Health. - 2011. - №49. - P. 443-451.

4. Ulkanbayeva, G., Bobodjanov, S., Mansurova, M., Nigmatova, F. Calculation of the strength of a shock-compensating vest made of high-strength material in an inflatable state AIP Conference Proceedings, 2023, 2789, 040016
5. Ганиева Г.А. Разработка методики проектирования специальной одежды для рабочих нефтяной отрасли: дис. докт. фил. (PhD): 6D072600. –Алматы: АТУ. - 2017.-30 с.
6. Chorlieva M.M. "Neft-gaz sanoat ishchilari uchun maxsus kiyimni loyihalash usullarini takomillashtirish" (PhD) 05.06.04-"Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni" dissertatsiya ishi Buxoro-2023y.
7. Baratova U.M. Ekspluatatsion xususiyati oshirilgan matolardan neft-gaz sanoati ishchilari uchun maxsus kiyim ishlab chiqish: magistr dissertatsiya-2023y-77b.
8. Sh.A.Tosheva, M.B. Norqobilova, M.A. Mansurova "Neftchilarning himoyalovchi maxsus kiyimini loyihalash masalalari" ФарПИ илмий – техника журналы, 2024, Т.28, №5, 55-60 б.

